| <b>Baratov Baxtiyorjon Qodirovich</b>                                                                                                                                       |     |
| Bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashishida o'yinning roli.....                                                                                                  | 275 |
| <b>Barno Masharipova Erkin qizi, Zuhrobova Mahliyo Abdulatif qizi</b>                                                                                                       |     |
| Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida integrativ yondoshuvdan foydalanish texnologiyasi .....                                                                    | 278 |
| <b>Ernazarova Laylo Abdusaitovna, Saidahmadova Gulrux Farrux qizi</b>                                                                                                       |     |
| Bo'lajak tarbiyachilarda metarefleksiv fikrlashni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari .....                                                                    | 284 |
| <b>Ismailova Nilufar Isroildjanovna</b>                                                                                                                                     |     |
| Semantic and Cross-Cultural Features of Food-Based Idioms in Karakalpak and English Languages.....                                                                          | 289 |
| <b>Jiemuratova Gulistan Koshkinbaevna</b>                                                                                                                                   |     |
| Filolog talabalarida mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni rivojlantirishda metakognitiv yondashuvlarning didaktik mexanizmlari.....                                    | 292 |
| <b>Jo'rayeva Dilnoza Ro'zimat qizi</b>                                                                                                                                      |     |
| Rivojlantiruvchi sohalar kompetensiyalariga integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasini rivojlantirish ..... | 296 |
| <b>Jo'rayeva Zilola Sayfiddin qizi</b>                                                                                                                                      |     |



|                                                                                                                                                                   |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Psixologlar kasbiy komponentlarini rivojlantirishda matematik usullardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.....                                            | 302 |
| Kuziyeva Dilnura Dilmurotovna                                                                                                                                     |     |
| O'zbekiston metodik maktabida sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili .....                               | 306 |
| Madaminova Gulzira Gulamkadirovna                                                                                                                                 |     |
| Maxsus pedagogika fanlarini o'qitishning nazariy-metodik asoslari .....                                                                                           | 313 |
| Maqsudova Nodira Alijonovna                                                                                                                                       |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishda ertakterapiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi .....                          | 317 |
| Muxiddinova Difuza Sherdor qizi                                                                                                                                   |     |
| Nutq madaniyatini shakllantirishda o'qituvchi nutqining roli.....                                                                                                 | 320 |
| N. Q. Olimova                                                                                                                                                     |     |
| Boshlang'ich ta'lim jarayonida matematika fanini o'qitishda raqamli transformatsiya vositalaridan foydalanishning metodik paradigmasi .....                       | 323 |
| Narzullayeva Sevara Omonovna                                                                                                                                      |     |
| O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish metodikasi .....                                                                                                | 326 |
| Normirzayeva Maftunaxon Ilyosjon qizi                                                                                                                             |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda intensiv ta'lim texnologiyalarining metodik asoslari.....                                  | 329 |
| Olloqulova Farzona Umedillayevna                                                                                                                                  |     |
| Maktabgacha ta'lim yoshidagi giperaktiv bolalar bilan ishlashda pedagogik kompetentligini oshirish metodikasi .....                                               | 332 |
| Raimqulova Sojida Abdusaid qizi                                                                                                                                   |     |
| Talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy asoslari .....                                                                         | 335 |
| Rustamova Shoxista Omonjonovna                                                                                                                                    |     |
| Inklyuziv ta'limni tashkil etishning xorijiy pedagogik amaliyotdagi modellari .....                                                                               | 339 |
| Sultonova Zarina Uchqun qizi                                                                                                                                      |     |
| Xalq pedagogikasida ertaklarning tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati: ma'naviy begonalashuvga qarshi tarbiyaviy omil sifatida .....                         | 343 |
| To'xtasinova Farida Davlatali qizi                                                                                                                                |     |
| B1 darajadagi talabalar uchun xorijiy tilni o'qitishda audiovizual texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirishning metodik asoslari .....            | 347 |
| Toshpulatova Shaxsanam Xolmurodovna                                                                                                                               |     |
| Kontekstli ta'lim va uning boshlang'ich ta'lim matematikasidagi ahamiyati haqida .....                                                                            | 350 |
| Umarova Nigora Alisherovna                                                                                                                                        |     |
| Oiladagi psixologik muhitning o'spirinlarda to'liqsizlik kompleksi shakllanishiga ta'siri .....                                                                   | 353 |
| Xalmuratova Dilorom Abdikarimovna                                                                                                                                 |     |
| Ta'limda faktcheking: misinformatsiya va dizinformatsiyaga qarshi kurashishning pedagogik asoslari .....                                                          | 356 |
| Xidirova Maftuna Ilhom qizi                                                                                                                                       |     |
| Maktab o'quvchilarini falsafiy va dunyoqarashga tayyorlash omillari .....                                                                                         | 362 |
| Xo'shboqova Farida Komiljon qizi                                                                                                                                  |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq faoliyatini rivojlantirishning lingokognitiv asoslari .....                                                                 | 370 |
| Xusanova Gulruxsor To'liqin qizi, Aliyeva Muhlis Baxodir qizi                                                                                                     |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini oshirish .....                                                                                         | 374 |
| Zokirova Sohibaxon Muxtaraliyevna, Erkinova Nazokatxon Anvarjon qizi                                                                                              |     |
| Эффективность занятий кроссфитом в повышении уровня общей физической подготовленности слушателей института повышения квалификации МВД Республики Узбекистан ..... | 377 |
| Албеков Шокир Адилбекович                                                                                                                                         |     |
| Роль торговых и кочевых маршрутов в формировании лингвокультурных заимствований между Хорезмом и Южной Сибирью.....                                               | 381 |
| Сатымова Светлана Сатымовна                                                                                                                                       |     |
| Использование искусственного интеллекта в обучении русскому языку как иностранному: проблемы и решения.....                                                       | 385 |
| Ташева Дилором Салимовна                                                                                                                                          |     |
| Проблемы использования коммуникативного метода в преподавании русского языка студентам .....                                                                      | 389 |
| Тоджибоева Наргиза Джумабоевна                                                                                                                                    |     |

# PSIXOLOGLAR KASBIY KOMPONENTLARINI RIVOJLANTIRISHDA MATEMATIK USULLARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kuziyeva Dilnura Dilmurotovna

Buxoro xalqaro universiteti 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada psixologlar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda matematik usullarni qo'llashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Psixodiagnostika, testlash, statistik tahlil va prognostik modellash kabi yo'nalishlarda qo'llanilayotgan matematik metodlarning afzalliklari yoritiladi. Shuningdek, psixologlarni tayyorlash jarayonida matematika madaniyatini shakllantirish va kasbiy bilimlarni takomillashtirishning pedagogik ahamiyati ilmiy asosda ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** psixolog, kasbiy kompetensiya, matematik usullar, psixometrika, statistik tahlil, testlash, pedagogik texnologiya.

**Abstract:** This article examines the theoretical and practical aspects of applying mathematical methods in the development of psychologists' professional competencies. It highlights the advantages of mathematical approaches used in psychodiagnostics, testing, statistical analysis and prognostic modeling. The scientific and pedagogical significance of fostering mathematical culture and improving professional knowledge in the process of training psychologists is also emphasized.

**Key words:** psychologist, professional competence, mathematical methods, psychometrics, statistical analysis, testing, pedagogical technology.

**Аннотация:** В статье анализируются теоретические и практические аспекты применения математических методов в развитии профессиональных компетенций психологов. Раскрываются преимущества использования математических методов в таких направлениях, как психодиагностика, тестирование, статистический анализ и прогностическое моделирование. Показано научное и педагогическое значение формирования математической культуры и совершенствования профессиональных знаний в процессе подготовки психологов.

**Ключевые слова:** психолог, профессиональная компетентность, математические методы, психометрия, статистический анализ, тестирование, педагогические технологии.

## KIRISH

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab, jamiyatimizning barcha sohalari qatori ma'naviy-mafkuraviy hayotimizda ham ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Mustaqil taraqqiyot yillarida to'plangan tajriba, dunyo jamoatchiligi "o'zbek modeli" deya e'tirof etgan o'zimizga mos va o'ziga xos rivojlanish yo'li, kelajagi buyuk davlat barpo etish borasida amalga oshirilayotgan barcha tarixiy o'zgarish va yangilanishlar yurtodshlarimiz qalbi va ongiga ulkan ta'sir ko'rsatmoqda.

Insonlarda kasbiy maqsad, kasbiy o'zlikni anglash, kasbiy shakllanish, kasb tanlash va uni o'zgartirish sabablari haqida, kasbiy rivojlanish bosqichlari haqida to'liq tasavvur mavjud emas. Ular esa o'z navbatida kasb psixologiyasining predmetini tashkil qiladi. Aynan kasb tanlash borasidagi ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, ongli kasb tanlash, kasbiy inqiroz va qiyinchiliklarni yengib o'tishda mazkur fanga doir bilimlarni bilish talab qilinadi. Shu bois, hozirgi kunda kasb psixologiyasiga doir bilimlarga zarurat sezilmoqda. Keng tarqalgan ta'riflarga ko'ra psixologiya – psixik faktlar, ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganadi. Shuningdek, psixologiya inson faoliyati va xulq-atvorida ob'ektiv reallikning aks etishi qonuniyatlari haqidagi fandır. Psixologiya sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va o'rganilgan nazariy manbalar, shuningdek, fanlararo o'zaro integratsiya jarayonlari psixologiya tarmog'ida ko'plab o'z predmetiga ega bo'lgan sohalarning ajralib chiqishiga turtki bo'ldi. Ular jumlasiga kasb psixologiyasini kiritishimiz mumkin.





Kasb va kasbga yo'naltirishning nazariy shart-sharoitlari deganda, kasb va kasbga yo'naltirish faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan turli xil qarashlar majmuasi, g'oyalari va tasavvurlar yig'indisi tushuniladi. Bu yoshlarning shaxsiy qiziqishlari, layoqati va qobiliyatlariga mos keladigan, jamiyat uchun zarur kasblarga yo'naltirishdir (1-jadvalga qarang). Muammoning muhimligi, yoshlarni kasbga yo'naltirishga oid bir qator amaliy masalalarni shoshilinch ravishda hal qilish zarurligi hozirgi vaqtda ko'plab mutaxassislar: pedagoglar, psixologlar, shifokorlar, iqtisodchilar, sotsiologlar va g'oyat xilma-xil sohalarida ishlovchi amaliyotchi xodimlarning e'tiborini o'ziga jalb etadi. Bu borada ko'plab mutaxassislarning ishtirok etishi va ish olib borishi muammoni to'g'ri va kompleks tarzda hal etish uchun zamin yaratadi, albatta (1-jadvalga qarang).

Hozirgi davrda iqtisodiyot hamda madaniyatni tez va uyg'un rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarni va siyosiy ustqurmani takomillashtirish, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va oliy boyligi bo'lmish insonning o'zini yanada kamol toptirish manfaatlarini yosh avlodlarga ta'lim va tarbiya berishga yangicha, yanada keng ko'lamda yondashishni talab qiladi. Hozirgi kunda amaliy psixologiya tez rivojlanmoqda va jamiyatning turli sohalarida, xususan ta'lim tizimida o'z o'rnini topgan. Maktablarda amaliy psixologlarning faoliyati tobora muhim rol o'ynamoqda. Psixologlar umumta'lim maktablari, litseylar, maxsus maktablar va boshqa ta'lim muassasalarida bolalar va o'quvchilarning ruhiy holatini rivojlantirishda, ularning ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlashda katta amaliy yordam ko'rsatmoqdalar.

Amaliyotchi psixolog – bu yangi va jamoat uchun muhim mutaxassislik bo'lib, ta'lim tizimidagi ijtimoiy talablarni qondirish uchun tashkil etilgan. Yosh avlodning ijodiy va axloqiy salohiyatini rivojlantirishga bo'lgan talablar ortib borar ekan, amaliyotchi psixologlarning malakasini oshirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Maktab amaliyotchi psixologlari o'quvchilarning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash, ularning psixologik holatini tushunish va muammolarini hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

Biroq amaliyotchi psixologlarni tayyorlashda ko'plab muammolar mavjud. Bir tomondan, amaliyotchi psixologlarning malakasi doimiy ravishda oshirilishi zarur, chunki bu jarayon ularning o'z faoliyatlarida yangi ijtimoiy ehtiyojlarga samarali javob berish imkoniyatini yaratadi. Ayni paytda, qisqa muddatli kurslar va tayyorlik dasturlari psixologlarning amaliy faoliyat sifatini oshirish uchun yetarli bo'lmayapti. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida amaliy psixologlarning malakasini oshirishga e'tibor qaratilishi, ularning kasbiy kompetensiyalarini doimiy ravishda yangilab borishi zarur.

Maktab amaliyotchi psixologlarning malakasini oshirishga qaratilgan samarali dasturlar o'quvchilarning psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda, ularning o'zaro munosabatlarini yaxshilashda va psixologik yordam ko'rsatishda yanada samarali bo'lishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim tizimining umumiy sifatini oshirishga hissa qo'shadi.

Maktab amaliyotchi psixologining kasbiy faoliyati zamonaviy ta'lim tizimida tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Biroq ushbu sohada kadrlar tayyorlash va ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash jarayonida qator muammolar mavjud. Avvalo, amaliyotchi psixolog kasbi va ushbu xizmat sohasi hali-hanuz to'liq shakllanmaganligi sababli, maktab amaliyotchi psixologining huquqiy maqomi, funksional vazifalari, ta'lim muassasasining xususiyatlariga qarab faoliyatining asosiy yo'nalishlari va o'ziga xos jihatlari aniq belgilab berilmagan. Shu bois, ularning kasbiy rivojlanishiga qaratilgan uzluksiz ta'lim tizimi ham hali to'laqonli ishlab chiqilmagan.

Zamonaviy psixologik amaliyotda obyektivlik va aniqlikka bo'lgan talab ortib bormoqda. Psixolog nafaqat inson psixikasini tushunishga ega bo'lishi, balki olingan ma'lumotlarni ilmiy asosda tahlil qilish, umumlashtirish va prognoz qilish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. Bunda matematik usullar psixodiagnostika, testlash va tadqiqot jarayonlarida muhim instrument hisoblanadi.

Psixologiyada matematik usullarni qo'llash psixometrik yo'nalishning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, statistik tahlil, modellashtirish, korrelyatsion va regression tahlillar psixolog kasbiy kompetensiyalarining ajralmas qismiga aylandi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologik tadqiqotlarda matematik usullarning qo'llanishi psixodiagnostika va empirik izlanishlarning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi. Abdullaev shuningdek, psixologiyada empirik tadqiqot metodlari kompleks yondashuvni talab qilishini, bunda statistik tahlil va matematik modellash tadqiqotning ishonchligi va obyektivligini oshirishini ta'kidlaydi. Anciferova shaxs psixologiyasini o'rganishda individual farqlarni aniqlash, ma'lumotlarni solishtirish va baholashda matematik metodlar zarurligini qayd etadi.

Psixodiagnostika sohasida Burlachuk va Morozov tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy yondashuvlar testlarning ishonchligi, validligi va standartlashtirilishini aniqlashda matematik-statistik usullar muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. G'ulomov va Mamatqulov psixologik tadqiqotlarda statistik usullardan foydalanish amaliy psixologlar uchun kasbiy kompetensiyaning ajralmas qismi ekanini ta'kidlaydi, xususan, korrelyatsiya, regression tahlil, faktor va dispersiya tahlili psixologik jarayonlarning ichki qonuniyatlarini ochishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.



Xorijiy adabiyotlarda ham matematik psixologiya alohida ilmiy yo'nalish sifatida yuksak baholanadi. Kornilova va Chumakova matematik modellash psixologik hodisalarni aniqlashda aniqroq natija berishini asoslab beradi, Field esa statistik paketlardan to'g'ri foydalanish psixologning tahliliy salohiyatini oshirishini ko'rsatadi. Meyers, Cohen va Tabachnick asarlarida ko'p o'zgaruvchili tahlil metodlari psixologik izlanishlarda qaror qabul qilish jarayonini chuqurlashtiruvchi ilmiy asos sifatida taqdim etiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi ushbu mavzu doirasida psixologlar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda matematik usullarni qo'llash jarayonini empirik va nazariy tahlil qilishga asoslanadi. Ma'lumotlar amaliyotchi psixologlar faoliyatini o'rganish, psixodiagnostik testlar natijalarini yig'ish, statistik tahlil dasturlarida qayta ishlash hamda mavjud ilmiy manbalarni kontent tahlili orqali baholash yo'li bilan olindi. Tadqiqotda asosiy e'tibor o'rtacha qiymatlar, dispersiya, korrelyatsiya va regression tahlil kabi statistik metodlardan foydalanishga qaratildi. Shuningdek, psixometrik modellardan – Kronbax alfa koeffitsienti, IRT parametrik tahlili va Rash modeli – testlarning ishonchlilik va validligini aniqlashda foydalanildi. Olingan ma'lumotlar kompyuter dasturlari yordamida qayta ishlanib, natijalar taqqoslash, umumlashtirish va diagnostik ko'rsatkichlarni aniqlash orqali tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Psixolog kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda matematik usullar muhim ahamiyatga ega. Psixologning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. Diagnostik kompetensiya – psixodiagnostik testlarni tuzish va baholash;
2. Tahliliy kompetensiya – ma'lumotlarni statistik usullarda tahlil qilish;
3. Kommunikativ kompetensiya – tahlil natijalarini tushunarli tarzda taqdim etish;
4. Prognostik kompetensiya – psixologik jarayonlarni modellashtirish va prognoz qilish.

Bu elementlarning aksariyati matematik usullarsiz to'laqonli bajarilishi mumkin emas.

**Statistik tahlil usullari.** Psixologik tadqiqotlarda statistik usullar ma'lumotlarni ishonchli va obyektiv tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu usullarga quyidagilar kiradi: o'rtacha qiymatlar va dispersiyani hisoblash, korrelyatsion tahlil (Pirson, Spirmen), t-test va F-test, regression tahlil, faktor va klaster tahlili. Bu usullar psixologik hodisalar orasidagi bog'liqliklarni aniqlash va umumiy qonuniyatlarni chiqarish imkonini beradi.

**Psixometrik modellash.** Testlar ishonchlilik va validligini baholashda matematik modellar muhim ahamiyatga ega. Masalan, Kronbax alfa koeffitsienti ichki muvofiqlikni baholashda qo'llanadi, IRT (Item Response Theory) test savollarini parametrik tahlil qilish imkonini beradi, Rash modeli esa test sifati va o'zgaruvchanlikni baholashda qo'llaniladi.

**Prognostik modellar.** Regression modellar, neyron tarmoqlar va Bayes tarmoqlari psixologiyada shaxs xulq-atvorini prognoz qilish, kasbiy yo'nalishni aniqlash va stressga chidamlilik darajasini baholashda qo'llaniladi. Bu psixologga ilmiy asosda qaror qabul qilish imkonini beradi.

### Psixologlarni tayyorlashda matematik usullarni o'qitish xususiyatlari

Psixologlarni tayyorlash jarayonida matematik usullarni o'rgatishning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Integrativ yondashuv – matematik usullar psixologiya fanlari bilan bog'liq holda o'rgatilishi lozim.
2. Amaliyotga yo'naltirilganlik – talabalarga real tadqiqot ma'lumotlari va testlar bilan ishlash imkoni yaratilishi kerak.
3. Kompyuter dasturlaridan foydalanish – SPSS, R, Python kabi statistik platformalar psixologning raqamli madaniyatini oshiradi.
4. Matematik fikrlashni rivojlantirish – tahliliy va modellashtiruvchi fikrlash ko'nikmalari shakllantiriladi.

Matematik usullardan foydalanish psixologning kasbiy faoliyatida aniqlik, ishonchlilik va obyektivlikni ta'minlaydi, tadqiqot va amaliyot samaradorligini oshiradi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Psixologlar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda matematik usullardan foydalanish mutaxassisning ilmiy-tatbiqiy imkoniyatlarini kengaytiradi, psixodagnostik jarayonning ishonchli va obyektiv kechishini ta'minlaydi. Zamonaviy psixologni tayyorlashda statistik tahlil, psixometrik modellash va prognostik usullarni chuqur o'rgatish dolzarbdir. Matematik madaniyatni oshirish psixologik amaliyot samaradorligini ko'taruvchi muhim omil hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев Ш. Психологияда эмпирик тадқиқот олиб бориш технологиялари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2020.
2. Анциферова Л. И. Психологическое исследование личности. – Москва: Наука, 2018.
3. Бурлачук Л. Ф., Морозов С. М. Словарь-справочник по психодиагностике. – Киев: Вища школа, 2016.
4. Гуломов А., Маматкулов Қ. Психологияда статистик усуллар. – Тошкент: Университет нашриёти, 2020.
5. Дабиров С. А. Амалиётчи психологлар учун статистик таҳлил асослари. – Тошкент: Иқтисод-Молия, 2021.
6. Kelly J. Statistical Methods in Psychology. – London: Routledge, 2017.
7. Kornilova T. V., Chumakova M. A. Metody matematicheskoy psikhologii. – Moskva: Yurayt, 2019.
8. Meyers L., Gamst G., Guarino A. Applied Multivariate Research: Design and Interpretation. – Thousand Oaks: SAGE Publications, 2013.
9. Field A. Discovering Statistics Using SPSS. – London: SAGE Publications, 2018.
10. Хайдарова С. М. Амалиётчи психологлар учун тадқиқот методлари. – Тошкент: Тафаккур, 2022.
11. Челпен В. И. Математические методы в экспериментальной психологии. – Москва: Логос, 2015.
12. Cohen J., Cohen P., West S. G., Aiken L. S. Applied Multiple Regression/Correlation Analysis for the Behavioral Sciences. – New York: Routledge, 2014.
13. Tabachnick B. G., Fidell L. S. Using Multivariate Statistics. – Boston: Pearson, 2019.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari





# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.